

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**ONA TILI VA ADABIYOTI FANIDAN TA`LIM-TARBIYA BERISHDA ZAMONAVIY  
O`QITISH METODLARIDAN – INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH.**

**Ollayorova Muborak**

*Xorazm viloyati Urganch tumani 47-sonli IDUMning ona tili va adabiyot fani  
o`qituvchisi*

**Annotatasiya :** *Ushbu maqolada ona tili fanini o`qitishda pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida dars-mashg`ulotlarini olib boorish haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Tizim, Innovatsion, yo`nalish, maqsad, metod, uslub, yuksaltirish*

Ta`lim jarayonidagi shu narsa aniqki, bunda o`qituvchining ham, o`quvchining ham, umuman olganda, shaxsning taraqqiyoti, uning ma`lumoti va tarbiyasi namoyon bo`ladi. Aslida o`qituvchi o`z bilimi, ko`nikma va malakalarini mashg`ulotlar orqali o`quvchilarga yetkazadi, o`quvchilar esa buni o`zlashtirib borishi natijasida til va uning vositalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo`ladi. Til o`rganish jarayonida o`quvchilar o`zlashtirishning turli ko`rinishlaridan – usullaridan foydalanishadi, ya`ni o`zlashtirilayotgan ma`lumotlarni qabul qilish, qayta ishlashda va amaliyotga tatbiq etishda o`ziga xos tafovutlarga tayanadi. Til o`rganish maqsadi o`quvchilar uchun til tizimi bilan tanishish, ulardan amaliyotda, ilmiy-tadqiqot faoliyatida foydalanish imkonini beradi.

Ta`lim jarayonida ona tili vositasida o`qituvchi va o`quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o`quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar ko`rinishida ta`lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o`quv jarayonida qo`llashga bo`lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda o`quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallahsga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topish, mustaqil o`rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ona tili mashg`ulotlarida o`yin topshiriqlarni takrorlash va mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O`yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o`quvchilarining qiziqishi va bilim-saviyalariga bog`liq. Ta`limda o`quvchi shaxsini fikrlashga, o`zgalar fikrini anglash va shu fikrni og`zaki va yozma ko`rinishda ifodali va ta`sirchan qilib bayon eta olishga alohida e`tibor qaratilgan bo`lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o`rin egallyaydi. Bilamizki, har bir

millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy madaniy merosi bilan o`lchanadi. Bu esa aloqaning eng muhim vositasi til juda ham muhim ekanligini ko`rsatadi.

Shu o`rinda yana bir narsani aytish joizki, o`qituvchining vazifasi o`quvchilarni faqatgina fan materiallari bilan tanishtirishgina emas, balki ularning og`zaki va yozma nutqini o`stirish hamda savodxonligini oshirish hamdir.

Ta`lim metodlari haqida haqida ham qisqacha aytib o`tadigan bo`lsak, metod – yunoncha (“biror maqsadga yetish uchun yo`l”) so`zidan olingan va “yo`l”, biror narsani tartibga solish kabi ma`nolarni bildiradi. Ta`lim metodi o`quv jarayonining asosiy vositasi hisoblanadi. Metod – ta`lim jarayonida taqdim etilgan nazariy va amaliy bilimlarni egallash, o`zlashtirish, o`rganish va bilish uchun xizmat qiladigan yo`l yo`riqlar, usullar majmui. Bu metodlar turlicha: ular o`quvchilar faoliyati bilan bog`liq bo`lib, passiv, faol va interfaol kabi turlarga bo`linadi. Ya`ni o`quvchining mashg`ulotga passiv yondashuvi, faol yondashuvi, interfaol yondashuvi asosida belgilanadi.

Klaster metodi ham ilg`or va samarali metodlardan biri hisoblanadi. Klaster(g`uncha, bog`lam) metodi pedagogic, didaktikstrategiyaning muayyan shakli bo`lib, u o`quvchilarga ixtiyoriy mavzular haqida erkin, ochiq o`ylash va shaxsiy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

“Videotopishmoq” metodi . Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalar(kompyuter, televedeniya, radio, nusxa ko`chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta`lim jarayoni tashkil etilmoqda. O`qituvchilar oldida ta`lim jarayonida turli axborot vositalaridan o`rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. Yo`ldoshev. J , Usmonov. S Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish - T. 2006.
2. Rafiyev. A, Muhammadjonova. G , Ziyomuhamedova. G O`zbek tili, 3-sinf – T: O`zbekiston, 2012.
3. Muhiddinova. X, Avlakulov. Y, Nuriddinova. D O`zbek tili, 6-sinf – T: 2013.
4. Bekmurodov. A, Majidov. I, G`ofurov. U, Mustafoqulov. Sh Buyuk va muqaddassan mustaqil vatan – T: O`qituvchi, 2011.